



PEMA

1
2024



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

1-son (2024-yil, yanvar)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

<p>Iboralar ustida ishlashga doir qo‘shimcha ijodiy mashqlar</p>	<p>Berilgan gaplar mazmuniga mos iboralarni toping, ularni o‘qing. Gaplarni ko‘chiring. <i>Iboralar: kekirdagini cho‘zib, pashsha qo‘rib, tasalli berdi, yuragim qinidan chiqib ketayozdi. Hayitvoy o‘sha yerda hamon gapirar edi. Aytganingizday, bir soatdan berio‘tiribman, Komil aka. Hokim onasining yuz-ko‘zidan o‘pib, unga, ko‘nglini ko‘tardi. Naq, Iso bobo negadir tozining bo‘yinbog‘ini qo‘liga mahkam o‘radi.</i></p>	<p>Bu kabi topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarda iboralar ma‘nosini bilish, nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasi rivojlanadi</p>
--	--	---

O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash bosqichi uchun mashqlar tuzilishi quyidagi qismlardan: milliy-madaniy kontekstni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan didaktik material (lingvistik va milliy-madaniy ma‘lumotlar ifodalangan o‘quv matni), dars mavzusi va tilshunoslikning boshqa bo‘limlariga aloqador qo‘shimcha topshiriqlar majmuyidan iborat. Bu kabi mashqlarni bajarishdan asosiy maqsad o‘zbek xalqi urf-odatlarini, an‘analari va milliy madaniyati haqidagi yangi ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yetkazishdir. O‘quvchi tanishgan matn kontekstidan iboralarni topadi va ular ifodalab kelgan ko‘chma ma‘noni izohlaydi.

Yuqorida tavsiya etilgan mashqlar tizimi o‘quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, bu kabi mashqlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, obrazli tasavvur qilish ko‘nikmasini va ona tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan kognitiv qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Bu kabi mashqlarni yaratish, ularni muntazam o‘tkazish mazkur muammoning yechimi sifatida xizmat qiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ishlaridan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning xalqimizning iboralarda aks etgan milliy-madaniy an‘analariga bo‘lgan qiziqishini, ularni nutqida faol qo‘llashini rivojlantiradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi, boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limi jarayonida nutqimiz ko‘rki – iboralar orqali o‘quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirish yo‘nalishidagi metodik tavsiyalarni kengaytirish va amaliyotga joriy etishdan iborat. Bu vazifani amaliy ahamiyati dars jarayonida milliy-madaniy komponentli iboralarni to‘g‘ri tanlash, ularni mavzu mazmuniga mos holda guruhlash va iboralar lug‘ati ustida ishlashda mashqlar tizimidan samarali foydalanish bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Mamatov A. E. “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari” Dok. disser. 10.02.02.
2. Shomaqsudov Sh., Dolimov S., Dolimov U. Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralarining ensiklopediyasi. – T.: «Sharq», 2020. – 640 b.
3. Yo‘ldoshev M., Cho‘lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali.1999-yil, 6-son 59-bet.
4. Rahmatullayev Sh., O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. O‘qituvchi.T.:1978.
5. Yo‘ldoshev B., O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti (monografiya). Samarqand. 2013. – 116 b.
6. Абдувалиев М. А. Сложноподчинённые предложения с придаточным уступительным в разносистемных языках, К.Д. Ташкент, 1989.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 144 b.
8. Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. ном. диссер. – Самарқанд: 2001. – Б. 14.
9. Раджабова М.А., Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвистик талқини. Илмий монография. Вухоро – 2022, 168 b.

“ONA TILI O‘QITISH METODIKASI” MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG‘OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi,

*Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
u.s.togaeva@buxdu.uz*

Ushbu maqolada Ona tili o‘qitish metodikasini loyihaviy ta‘lim asosida o‘qitish imkoniyatlari, o‘qitish jarayonida ilg‘or tajribalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Ta‘lim tizimining dunyo amaliyotida o‘qitish metodikasini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ta‘lim sifatini ta‘minlashning yetakchi omili sifatida qaraladi. Ilg‘or texnologiyaga asoslangan darslar talaba va o‘qituvchi o‘rtasida teng, do‘stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O‘quvchi darsda o‘zini erkin his qiladi, mashg‘ulotlarga qiziqishi, so‘z san‘ati bilan shug‘ullanishga hamda ijodga rag‘bati ortadi. Maqolada ilg‘or tajribalar asosida “Ona tili o‘qitish metodikasi” darslarini tashkil etishda bir qator metodlardan foydalanish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: loyihaviy ta‘lim, loyihalashtirish, modul, o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish, an‘anaviy ta‘lim, noan‘anaviy ta‘lim, mediata‘lim, modulli o‘qitish texnologiyasi, mustaqil fikrlash.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВОГО ОПЫТА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МОДУЛЯ «МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА»

В данной статье описаны возможности преподавания методики преподавания родного языка на основе проектного обучения, особенности использования передового опыта в учебном процессе. В мировой практике системы образования внедрение современных информационно-коммуникационных технологий, основанных на интеграции индивидуализации методов обучения и компетентностных подходов, рассматривается как ведущий фактор обеспечения качества образования. Занятия, основанные на передовых технологиях, создают условия для равноправных, дружеских отношений между учеником и преподавателем. Учащийся чувствует себя свободно на уроке, у него повышается интерес к деятельности, мотивация к занятиям речевым искусством и творчеством. В статье освещены вопросы использования ряда методов при организации занятий по «Методике преподавания родного языка» на основе передового опыта.

Ключевые слова: проектное образование, проектирование, модуль, чтение, письмо, аудирование, говорение, традиционное образование, нетрадиционное образование, медиаобразование, модульная технология обучения, самостоятельное мышление.

USE OF ADVANCED EXPERIENCES IN IMPROVING THE «MOTHER LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY» MODULE

In this article, the possibilities of teaching the mother tongue teaching methodology based on project education, the specific features of using best practices in the teaching process are expressed. In the world practice of the educational system, the introduction of modern information and communication technologies based on the integration of individualization of teaching methods and competence approaches is considered as a leading factor in ensuring the quality of education. Classes based on advanced technology create conditions for an equal, friendly relationship between the student and the teacher. The student feels free in the lesson, his interest in activities, motivation to engage in speech art and creativity increases. The article highlights the issues of using a number of methods in the organization of "Mother language teaching methodology" classes based on best practices.

Key words: project education, design, module, reading, writing, listening comprehension, speaking, traditional education, non-traditional education, media education, modular teaching technology, independent thinking.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy oliy ta‘lim tizimida innovatsion ta‘lim texnologiyalari hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlashning samarali tizimi joriy etilishi ta‘lim oluvchilarning bilimlarining tizimli, kompleks hamda uzviy bo‘lishini

ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchi, avvalambor, o'zi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim. Har bir o'qituvchi o'z fanining yetuk mutaxassisi bo'lishi bilan bir qatorda, o'zidagi bor bilimni kam vaqt sarflagan holda katta hajmdagi axborotni ko'rgazmali tarzda yetkazib berishga harakat qilishi lozim. Jahon miqyosida davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta'lim mazmunida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalari orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yaponiya, Germaniya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Kanada kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilmiy markazlarida til ta'limining samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari hamda o'qitishning sifatini oshirish muammosi o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, “Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o'qitishni tubdan yaxshilash” muammosi BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalariga doir Bitimida ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ta'lim tizimining dunyo amaliyotida o'qitish metodikasini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ta'lim sifatini ta'minlashning yetakchi omili sifatida qaraladi.

Ona tili metodikasida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til ta'limi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Dars mashg'ulotlarini rang-barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga hamda ijodga rag'batini ortadi.

Metodlar. Talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan har qanday bilimni mustahkamlash, talabalarda gapirish ko'nikmasini yanada takomillashtirish uchun har doim ham ma'lum bir mashqlar tizimi va ularning qat'iy amal qilishi lozimpligi bilan bog'liq jarayonlar o'ta muhim. Ayniqsa, mashqlar tizimi gapirish ko'nikmasini mustahkamlash va takomillashtirish jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerakligi, uning prinsiplial ahamiyati bilan ham doimiy ham xarakter kasb etadi. Bu esa boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ham juda muhimligi bilan bir qatorda, o'qituvchilarning baholash ko'nikmalariga keng ta'sir ko'rsatadigan omil ekanligini doimo e'tibordan qochirmasligimiz lozim.

Ona tili o'qitish metodikasining didaktik vazifasi talabalarda eshitganlarni to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini takomillashtirish lozim.

Loyihaviy ta'lim – bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, o'qitish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishga mo'ljallangan o'quv jarayonidir.

“Ona tili o'qitish metodikasi” modulini takomillashtirish bu – o'qitish metodikasini rivojlantirish, ona tili ta'lim mazmunini individuallashtirish tamoyillari asosida boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish, grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish, xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalari, ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, davlat ta'lim standartlari doirasida ona tilidan ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida bilim olishga bo'lgan ehtiyoj majmuasidir.

Loyihalashtirish jarayonida “ART” (vizual, kinestetik), “Kouching” (murabbiy), “Fallstudy” (aniq vaziyatlar tahlili) kabi muammoli vaziyatlar va talabalar motivatsiyasini oshirishga qaratilgan “Sinektika”, “VARK” kabi interfaol metodlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

“VARK” metodi o'quvchilarning ko'rgazmali, audiovizual va kinestetik imkoniyatlaridan foydalanib, o'quv materialini o'rgatishga yo'naltirilgan usul. Turli xil o'quv materiallari: ko'rgazmali vositalar, multimedia dasturlari va turli xil o'yinlardan foydalanib o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda jamiyatda o'ta malakali o'qituvchilarga talabning, ehtiyojning ortib borishi sharoitida, dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz qonunchiligidan tortib, kadrlar tayyorlashgacha bo'lgan tizimlarni jahonning taraqqiy topgan davlatlari darajasiga qadar yuksaltirish va takomillashtirish vazifalari ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganligini ta'kidlash lozim.

Davlat va jamiyat hayotida esa globallashtirish-axborot davriga mos bo'lgan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bugun har qanchongidan yuqori. Buning asosiy sababi, esa talabalarining xorijiy axborotlar bilan doimiy tanishib borishi, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalari zarurligi, xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsata olish layoqatga ega bo'lishga intilishlari va hokazo omillar bilan belgilanadi.

Xorijiy tillardagi axborotlar, ma'lumotlar bilan ishlash uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarida xorijiy tillarni mukammal bilish talab qilinar ekan, avvalo, ularda axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirish masalalarini aslo unutmasligimiz lozim. Axborotlar bilan ishlashda tabiiy holatni hisobga oladigan va o'zida ularni aks ettiradigan mediamatnlar bilan bajariladigan mashqlar tizimi haqida gaplashish

maqsadga muvofiq. Mediamatn deganda “xorijiy tildagi mediamadaniy mahsulot, uning mohiyatini ifodalaydigan xarakteristikasi mahsuloti”ni tushunish lozim. Ularning ichida esa ko‘p o‘lchamlilik, ko‘p rejallilik, til salohiyati, dinamik uslub, ijtimoiy-tartibga soluvchi tabiati alohida ajralib turadi.

Zamonaviy pedagogikada “mediata’lim” deb nomlangan yo‘nalish mustahkam o‘rin olgan bo‘lib, unda ommaviy kommunikatsiya bilan bog‘liq bilimlarni, malakalarni va ko‘nikmalarni tarqatish va o‘zlashtirish jarayoni tushuniladi. Bu o‘ta muhim mashqlar tizimi bo‘lib, media bir necha bor ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘ta samarali va muhim yo‘nalish hisoblanadi. Media manbalar bilan tanishish va ulardan foydalanish bugungi kunda internet resurs tufayli cheklanmagan.

Ta’lim olish jarayonida tanlangan ixtisoslik bo‘yicha mediamatnni talabalar e’tiboriga havola qilish bilan, pedagog talabalarda, yoki bitiruvchilarda zaruriy fan sohasi bo‘yicha harakatchanlik shakllanishiga hamda ularda u yoki bu masala bo‘yicha dolzarb axborotlarni chuqur qidirishlari uchun anglash bilan bog‘liq qiziqishlarini ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘lgan publitsistik xarakterdagi matnlar hisobiga xorijiy tillarni o‘rganish uchun ularda motivatsiya yuksalishiga ko‘maklashadi. Demak, mediamatnlarning o‘rni xorijiy tillarni o‘rganish bilan bog‘liq mashqlar tizimida o‘rni beqiyos ekanligiga amin bo‘ldik. Misol uchun, birgina dalillarning tayyor ko‘rinishda namoyish qilinishi talabalar uchun xorijiy tilda o‘z dalillash tizimini shakllantira olishi uchun boshlanish nuqtasi bo‘lishi mumkin. Yana bir muhim tizim yoki yo‘nalish sifatida talabalarda biror bir jarayon yoki voqelikni o‘zida aks ettiradigan, professional darajada tasvirlashlari uchun imkoniyat yaratadigan maqollar yozdirish mashqlari ham muhim rol o‘ynaydi. Uning asosida dars jarayonidan so‘ng talabalarda unga mos o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmasi shakllanishi uchun mashqlar majmuyi yaratiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning ta’lim jarayoniga chuqur kirib kelganligi tufayli lingofon xonalarda multimediya resurslaridan foydalanishlari va tayyor mualliflik ishlanmalari asosidagi mashqlar tizimiga ulangan holda, ularni yechishlari ham mumkin. Bu tizimning o‘ziga xosligi va samaradorligi shundaki, pedagog uchun talabalar tomonidan bajarilgan vazifalarni uyda yoki bo‘sh vaqtda baholash uchun kuch sarflamasligidir. Ya’ni dars oxiriga qadar, mashqlarni kompyuterning o‘zi baholaydi. Ikkinchi tomondan esa, talabalar o‘zlari tomonidan o‘zlashtirgan yutuqlarini yoki kamchiliklarini doimiy kuzatib boriladi. Eng asosiysi, mediamatnlarning keng qo‘llanilishi natijasida pedagog tomonidan talabalar dars jarayonidagi faol, individual singari o‘z shaxsiy tajribalari uchun ham qo‘l keladi. Bunga pedagog tomonidan yozilishi mumkin bo‘lgan esse yoki mavzu haqida fikrlar yozilishi, talabalar o‘rtasida munozaralar tashkil qilinishi, loyihalar ishlab chiqilishi kabilar bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, aytishimiz lozimki, mutaxassisning professional kompetentligini quyidagi asosiy struktur komponentlarga ajratish mumkin:

o‘qituvchida psixologik nazariy bilimlarning mavjud bo‘lishi va insonning fiziologik va ruhiy holati haqida asosiy fanlar borasida professional-mazmun (asos bo‘luvchi) komponent bo‘lib, uning asosiy maqsadi sifatida o‘z professional faoliyatining mazmunini chuqur anglab yetishni nazarda tutadi;

amaliyotda tajribadan o‘tgan va mutaxassis tomonidan bir muncha samarali baholanadigan professional bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladigan professional faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan (amaliy) komponent;

o‘qituvchini shaxs, individ va faoliyat subyekti pozitsiyasini va yo‘naltirilganligini belgilab beradigan, o‘z ichiga professional va shaxsiy sifatlarni qamrab oladigan professional-shaxsiy komponent.

O‘qituvchilarning baholash mahorati darajalarini shakllantiruvchi omillar ichida professional kompetentlik o‘ta muhim o‘rin tutadi va aynan ushbu omil o‘qituvchining mahorati va professionallik jihatlari yanada o‘stirishda foydalanilishi mumkinligini aslo nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bu borada ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan chuqur izlanishlar olib borilganligini va ular tomonidan quyidagi komponentlar qo‘lga kiritilganligini alohida qayd etishimiz lozim:

maqsadga yo‘naltirilgan motivatsiya komponenti (yo‘naltirilganlik, motivlar);

mazmunli komponent (bilim);

operatsion-faoliyatli komponent (ko‘nikma, malaka, tajriba);

shaxsiy sifat komponenti (o‘qituvchining yoki pedagogning shaxsiy sifatlari va layoqati);

refleks komponent (o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini takomillashtirish).

Bugungi kun ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar sharoitida o‘qituvchining, uning ta’lim berish bilan bog‘liq vazifalarining tobora o‘sib borishi sharoitida o‘qituvchi-pedagogning professionallik kompetensiyasiga va ko‘nikmalariga nisbatan talabalar ham tobora ortib borayotganligini alohida qayd etishimiz lozim. Ta’lim jarayonlarini, talabalarini Yevropa darajasiga ko‘tarish, AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Isroil tajribalaridan foydalanish butun dunyo rivojlanayotgan mamlakatlari uchun o‘ta zaruriy tendensiyaga aylanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu davlatlar ta’lim tizimi bilan mamlakatimiz ta’lim tizimini integratsiya qilishni ustuvor vazifalar sifatida belgilashga alohida e’tibor qaratish lozim. Zero, biz yuqorida nomlarini sanab o‘tgan davlatlarning zamonaviy ta’lim tizimida yuz berayotgan yutuqlar va

jarayonlar fundamental ilmiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan va boy ichki madaniyatga, yuqori darajadagi pedagogik malakaga ega bo‘lgan, butun bir ijtimoiy faol pedagogik jamoa shakllantirilganligini ham yana bir muhim omil sifatida namoyon qilmoqda. Bu omil o‘qituvchilarga qo‘yilayotgan universal talablarda, ta‘lim xizmatlarining sifati tobora oshib borishida, bilimlardan foydalanishning shaffofligida hamda ularning ta‘lim jarayonining yuqori darajasi va doimiy rivojlanib borishiga ta‘sir ko‘rsatadigan holatlarning doimiy monitoringida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimining ham modernizatsiyalashuvi, professional ta‘limning bir muncha yaxshilanishi, kelajak mutaxassislarini tayyorlash uchun olib borilgan islohotlar davlat siyosatining milliy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganligini qayd etishimiz lozim. Shu munosabat bilan, ta‘limning bugungi kun paradigmasi birinchi o‘ringa shaxsiy sifatlari yuqori bo‘lgan, professionaligi juda yuqori, pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan, zamonaviy ta‘lim tizimining barcha jabhalaridan xabardor bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash birinchi o‘rindagi vazifalarimiz qatoriga ko‘tarildi. O‘qituvchilarning talabalar o‘zlashtirishi, bilim olishini baholashlari bilan bog‘liq professional kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ularda professional faoliyatda o‘z qadriyatlarini tizimini yaratish yo‘li bilan ro‘yobga chiqarish lozim.

O‘qituvchilarning baholash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida shunday xulosalarni qo‘lga kiritish mumkinki, o‘qituvchilarning professional kompetensiyasining umumiy fenomenologiyasi katta miqdordagi psixologik va pedagogik tadqiqotlarda o‘z aksini topgan bo‘lishiga qaramasdan, bu boradagi zamonaviy fanlarda pedagoglarning professional kompetensiyasi hanuzgacha doimiy va chuqur tadqiqotlarga muhtoj. Haqiqatda, ko‘plab olimlar o‘qituvchilarning professional kompetensiyasini “ta‘lim faoliyatini amalga oshirishga nisbatan nazariyaning va amaliyotning birligi hamda o‘qituvchining professionalizmini xarakterlovchi omil sifatida qaraydilar”.

O‘qituvchilarning talabalar ta‘lim sifatini baholash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalari shundan iboratki, kasbiy va hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda, o‘qituvchi-pedagog o‘z muammolarini hal qilish, talabalarni o‘qitish va bilimlarini oshirishning professional vazifalarini yecha bilish, talabalarining bilimlarini baholashning nostandart uslublarini o‘ylab topish va kreativlik asosida joriy qilish kabilarni o‘z ichiga oladi. Asosiy xususiyatlari sifatida esa, avvalo, xolislik, topqirlik, individuallik, malakalilik, professionallik va tajribaga egalik kabilarni keltirish mumkin.

Natijalar. Umuman olganda, mazkur yo‘nalishda chuqur tadqiqotlar olib borish, talabalar bilan bir qatorda, pedagog kadrlarni ham tayyorlash va qayta tayyorlashning inson muvaffaqiyatlarini ta‘minlashga xizmat qiladigan asosiy va maxsus umumkompetensiyaviy xususiyatlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, biz tomonimizdan ta‘kidlab o‘tilgan va maxsus kompetensiyalar professional faoliyatning aniq predmetli va mazmunli sohalarini o‘zida aks ettiradi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, “pedagogik kompetentlik” pedagogika kateriyasiga kiradi va pedagog-o‘qituvchilarda muvaffaqiyatga erishish uchun bilimlarga ega bo‘lishni, amaliyot uchun ularning mohiyatini tushunishni, professional vazifalarni yechish algoritmgiga ega bo‘lishni, operatsion ko‘nikmalar jamlanmasini hamda ijodiy (kreativ) faoliyat yuritish layoqatini aks ettiradi. Ba‘zan esa pedagogik kompetensiyalar o‘qituvchining professionalizmi bilan ham tenglashtiriladi, qiyoslanadi va bu o‘z navbatida ushbu tushuncha o‘zuv faoliyatida sodir bo‘ladigan fiziologik, ruhiy va shaxsiy o‘zgarishlarni aks ettiradigan xarakteristikalarining majmuyini qamrab oladi. O‘qituvchining nutq haqidagi fikr-mulohazalari orqali ularning dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar nutq kishining insoniyatini ifoda etuvchi muhim belgilardan biri ekanligini his qiladilar, nutqi ravon, xushmuomala insonlar hayot ko‘zgusi ekanligini anglab yetadilar.

Ona tili o‘qitish metodikasi fani pedagogik fanlardan biri bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi sohasi doirasidagi predmetlarni o‘qitish usullarini yoritib beradi. O‘quvchilarning tildan muhim tushunchalar tizimini o‘zlashtirishlarini, nutqqa, o‘qishga, yozishga oid ko‘nikma va malakalarni egallashlarini ta‘minlaydi. Bu ko‘nikma va malakalar maktabda boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga zamin hozirlaydi. Ona tilining tarbiyaviy ahamiyati juda katta bo‘lib, o‘quvchilarning dunyoni bilishiga, odamiylik munosabatlarini, fan va madaniyatni egallashlariga yo‘l ochadi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida qayd qilinganidek, “Boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan”. O‘quvchilarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashni ona tili ta‘limisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Metodika fanini o‘rganish talabalarni kichik yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga doir masalalarni mustaqil va ongli hal etishga tayyorlash, shuningdek, ta‘lim va tarbiya nazariyasi va amaliyotni mustaqil o‘rganishni davom ettirish uchun, yangi nashr etilgan metodik adabiyotlarni o‘qish uchun, yozish tajribasini tarkibiy baholash va umumlashtirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantiradi.

Ona tili metodikasi fanini puxta o‘zlashtirish nazariy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning pedagogik amaliyoti davrida va universitetni bitirgandan keyingi ishlarda ko‘nikma sifatida xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy mahoratini takomillashtirishda ona tili o‘qitish metodikasi moduli yuzasidan lingvistik va pragmatik kompetensiyalarini doimiy oshirib borishlari, shuningdek, ularni baholash tizimi har qachongidan muhim. Ularning o‘ziga xos metodologik asoslari, baholashning muqobil metodlari va variantlarini o‘rganish jarayonida shularni alohida qayd qilish lozimki, ona tilini o‘rganuvchilar, talabalar, ma‘lum bir ixtisoslikni qo‘lga kiritmoqchi bo‘lganlar uchun baholash – bu og‘zaki yoki yozma muloqot ko‘nikmalari qo‘llanilishi bilan autentik vazifalarning bajarilishini talab qiladigan, amalga oshirilgan ishlarga asoslanadi. Ushbu metodlar an‘anaviy va zamonaviyga, o‘rta, ilg‘or va yuqori darajalarga bo‘linishi, har biri o‘ziga xosligi bilan ajralib turishini, nafaqat auditoriya bilan, balki individual ishlashning talablarini o‘z ichiga qamrab olganligi mavzuning asosiy xarakterini o‘zida aks ettiradi. Loyihaviy ta‘lim vositasida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida “Ona tili o‘qitish metodikasi” modulini takomillashtirish holati, topshiriq turlari, savol va topshiriqlarning vazifaviy farqlanishlari, mashqlarning ona tili, davlat tili o‘qitish metodikalaridagi o‘rni, tuzilgan mustaqil ta‘lim topshiriqlari va mustaqil o‘quv topshiriqlarining tanlangan mavzu, shuningdek, ta‘lim maqsadiga mosligi, bo‘lajak mutaxassislarining topshiriq tuzish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqish masalalari haqida fikr yuritildi. Loyihaviy ta‘lim vositasida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida “Ona tili o‘qitish metodikasi” modulini takomillashtirishning mavjud holati, xususan, oliy o‘quv yurtlarida ona tili o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashga mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlarida savol, mashq va topshiriqlarning berilishi tahliliy o‘rganildi, shuningdek, keyingi yillarda mustaqil ta‘lim topshiriqlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga qisman munosabat bildirildi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637 son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31- dekabrdagi 824-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
4. Ona tili o‘qitish metodikasi fan dasturi. 2020.14.08
5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: “Noshir”, - 2009. 352 b.
6. Tog‘ayeva, U. (2021). Ona tili o‘qitish metodikasi. modulini o‘qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish//Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).
7. Tog‘ayeva, U. (2020). Improving the module" mother tongue teaching method" in project educational instructions. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2(2).